“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=335

2025-yil
11-son
noyabr
ISSN 3093-8546



Boshqaruvda sun’iy intellekt va huquqiy mas’uliyat

Berdiniyazova Nurya Koshkinbayevna,
Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi
sho‘ba boshlig‘i, I darajali yurist
e-mail: n.berdiniyazova@gmail.com

Аннотация. Ushbu maqolada boshqaruv tizimlarida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy jihatlari, SI qabul qilgan qarorlar uchun mas’uliyatni belgilashdagi muammolar hamda milliy va xalqaro huquqdagi amaliyot tahlil qilinadi. Shuningdek, SI ishtirokida boshqaruvni huquqiy tartibga solishning zamonaviy yondashuvlari va kelgusida rivojlanish istiqbollari bayon etiladi.

Калит сўзлар. sun’iy intellekt, boshqaruv, huquqiy mas’uliyat, internet, axborot texnologiyalari, raqamli O‘zbekiston, ixtirolar, javobgarlik

Аннотация. В данной статье анализируются правовые аспекты использования технологий искусственного интеллекта (SI) в системах управления, проблемы определения ответственности за решения, принимаемыеSI, а также практика в национальном и международном праве. Также излагаются современные подходы и перспективы дальнейшего развития правового регулирования управления с участиемSI.

Ключевые слова. искусственный интеллект, управление, юридическая ответственность, интернет, информационные технологии, цифровой Узбекистан, изобретения, ответственность

Annotation. This article analyzes the legal aspects of using artificial intelligence (AI) technologies in management systems, problems in determining responsibility for decisions made by AI, and practice in national and international law. It also sets out modern approaches to the legal regulation of management with the participation of AI and prospects for its further development.

Keywords. artificial intelligence, management, legal responsibility, internet, information technology, digital Uzbekistan, inventions, responsibility

XXI asr – axborot texnologiyalari yoqori cho‘qqida rivojlangan bir davrda o‘rgimchak to‘ri (internet)dan foydalanishning ijobiy

tomonlari, rivojlanishlar, o‘ylab topishlar, g‘oyalar, ixtirolarning yaratilishiga sabab bo‘layotgan texnologiyalarning yaratilishi bilan birga ularning salbiy tomonlari, xavf va xatarlar, to‘siqlar, hattoki turli jinoyatlarning ham guvohi bo‘lmoqdamiz. Shu bilan birga, yaqin o‘tmishda ilmiy-fantastik filmlap qahramoni bo‘lib ko‘ringan sun’iy intellekt (SI) bugun hayotimizning ajralmas qismiga aylanmoqda. Xo‘sh, sun’iy intellektning insoniyat kundalik hayotining bir qismiga aylanishi qanchalik to‘g‘ri, bizga sun’iy intellekt zarurmi, shu kungacha boshqaruv, ta’lim, shu qatori boshqa ijtimoiy sohalar u qanday rivojlangan? Mana shu savollarni atroflicha ko‘rib chiqamiz. Sun’iy intellekt texnologiyalari bugungi davlat boshqaruvi, korporativ menejment, iqtisodiy rejalashtirish va ijtimoiy sohalarda keng joriy etilmoqda. Avtomatik qaror qabul qilish tizimlari, prognozlashtirish algoritmlari, intellektual tahlil dasturlari boshqaruv samaradorligini oshirsa-da, ularning huquqiy maqomi va faoliyati natijasidan kelib chiqadigan mas’uliyat masalalari hali to‘liq shakllanmagan.

Bu yangi intellekt XXI asr boshqaruv tizimlarining negizi sifatida shakllanib bormoqda. Davlat xizmatlari, soliq ma’muriyati, xavfsizlik tizimlari, biznes jarayonlari va inson resurslarini boshqarishda turli algoritmlar va prognozlashtiruvchi modellap keng qo‘llanilmoqda. Shu bilan birga SI ishtirokida qabul qilingan qarorlar haqiqiy muallifi, yuridik sub’ekti va ularning oqibati uchun kim javobgar ekani masalalarini yanada dolzarblashtirdi. Ayni paytda “Sun’iy intellektni takomillashtirishning chegarasi bormi? U insoniyatga yana qanday imkoniyatlarni tuhfa etadi? Neyron tarmoq oxir-oqibat insoniyat ustidan hukmronlik qilmaydimi?” kabi savollar ko‘pchilikni qiziqtiradi. Ularga mutaxassislar muayyan javoblarni bermoqda. Biroq yakdil xulosalarga kelingani yo‘q, bahs-munozaralar davom etmoqda. Ushbu masala yuzasidan AQShdagi vatandoshimiz, “Amazon” kompaniyasi dasturiy ta’minot muhandisi Behzod Mamadiev o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi. Axborot texnologiyalari fanida “Turing testi” degan atama bor. U britaniyalik mashhur olim Alan Turing tomonidan XX asr o‘rtalarida ishlab chiqilgan. Ushbu test orqali mashina yoki kompyuterning intellekti inson ongiga qanchalik tenglashgani imtihon qilinadi. Agar kompyuter yoki sun’iy intellektning javoblari, o‘zini tutishi insondan farqlash mumkin bo‘lmagan darajaga etsa, u “Turing test”idan o‘tgan hisoblanadi. Shu paytgacha hech bir axborot mashinasi mazkur sinovdan o‘ta olmagan. Sun’iy intellektga oid tadqiqotlar boshlanganiga yarim asrdan oshdi. Kunlar kelib kompyuterning odamdek so‘zlashishi, hatto aqli insonlarnikidan o‘zib ketishi haqida bashoratlar ko‘p bo‘lgan, lekin buning qachon ro‘y berishi haqida farazlar turlicha. Biz esa faqat chegarani boshqarish orqali, ya’ni har qanday sohada sun’iy intellektni foydalanishda me’yorni saqlash orqali ijobiy natijalarga erishish ko‘nikmasini shakllantirishimiz zarurligidan dalolat beradi. Bu borada davlatimiz tomonidan sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, raqamli ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va

qayta ishlash tizimini takomillashtirish maqsadida ushbu sohada malakali kadrlarni tayyorlash, mazkur yo‘nalishdagi ilmiy-loyiҳalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Raqamli O‘zbekiston — 2030” Strategiyasiga muvofiq hamda sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo‘llash, raqamli ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta’minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida qator qonunchilik hujjatlari qabul qilinmoqda.Shular qatori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt texnologiyalarini yana-da rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasida qiymati 100 million AQSh dollaridan ortiq bo‘lgan sun’iy intellekt infratuzilmasini yaratish loyiҳalari bo‘yicha investorlarga taqdim etiladigan imtiyoz va preferensiyalar berilmoqda. Shu bilan birga, 2026-yil 1-yanvardan boshlab davlat organlari, ustav fondi (ustav kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining raqamli transformatsiya holatini baholashda sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish ko‘rsatkichlari inobatga olinadi. Reyting natijasiga asoslanib 2026-yil 1-martdan boshlab yiliga ikki marotaba eng yaxshi sun’iy intellekt loyihalarini joriy etgan vazirlik va idoralar o‘rtasida “Sun’iy intellekt bo‘yicha eng yaxshi loyiha” tanlovi o‘tkaziladi. Inson tafakkuri natijasida yaratilgan, boshqaruv mexanizmini yana-da engillashtiruvchi texnologiyalar albatta ijobiy natijalarga erishishimizga sabab bo‘ladi, ammo undan to‘g‘ri foydalansak albatta. Bunda sun’iy intellekt ham nima maqsadda, kimning qo‘lida ishlatilishiga qarab foydali yoki zararli bo‘lishi mumkin. Masalan, 2022-yil oxirlari, 2023-yil boshlarida ko‘pgina feyk suratlar tarqaldi, bu orqali feyk xabarlar ham chiqdi. Bir tomondan yaxshi keys bo‘ldi bular, chunki faktcheking qilish kerakligi, tekshirish lozimligi o‘rtaga chiqdi. Albaniya hukumatida esa sun’iy idrok asosida yaratilgan birinchi vazir paydo bo‘ldi. Diella ismli virtual vazir jismonan mavjud emas, ammo mamlakatda davlat xaridlari tizimining shaffofligi va korrupsiyadan xoli tashkil etilishiga mas’ul bo‘lishi belgilangan. Bu bir tomondan ijobiy ixtiro, sabab inson omilisiz adolatni ta’minlash, bu korrupsiyaviy jinoyatlarning kamayishiga, byurokratik to‘siqlarning oldi olinishiga sabab bo‘ladi. Boshqaruv sohasidagi ish faoliyatida esa har qanday rahbar qaror qabul qilishda mas’uliyat bilan, o‘z aqliy tafakkuri bilan va amaliy tajribasiga tayangan holda shaxsiy strategik fikrga ega bo‘lishi, bunda sun’iy intellektning tafakkurusiz.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, sun’iy intellekt boshqaruv samaradorligini oshirsa-da, uning huquqiy maqomi, javobgarlikni taqsimlash, algoritm shaffofligi va inson nazorati kabi masalalarni tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. O‘zbekiston raqamli transformatsiya yo‘lini tanlab, SIni huquqiy asosda muvofiqlashtirishga intilayotgan bo‘lsada, xalqaro tajriba shuni

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

ko‘rsatadiki, SI xavflarini minimallashtirish uchun kompleks yondashuv huquqiy, etik va texnik mexanizmlarni birlashtirish zarur. Bunda, boshqaruvda sun’iy intellektdan foydalanishda hodimlar, ayniqsa rahbar hodimlarning mas’uliyatini oshirish uchun birinchi navbatda ularning sun’iy intellektdan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini oshirish, bu esa o‘z navbatida idoralar saytlari va Telegram-botlarda intellektual chat-bot joriy etish orqali murojaatlarni avtomat tarzda tasniflash, tegishli bo‘limlarga yo‘naltirish, javob rezolyutsiyasini tayyorlab berish natijasida murojaatlarga javob berish vaqtini 40-60%ga qisqarishiga va asossiz kechikishlar kamayishiga erishish maqsad qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Халқ сўзи, https://xs.uz/uzkr/post/sunij-intellekt-imkoniyatmi-yo-tahdid;
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-4996-сон Қарори, 17.02.2021й., https://lex.uz/uz/docs/5297046;
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-189-сон Фармони, 22.10.2025й., https://lex.uz/docs/7789403#7792237;
4. Albania appoints world’s first AI-made minister – POLITICO, https://t.me/davlatxizmatchisi_uz.